

Ispaniya XVI asr – XVII asrning birinchi yarmida .

1. XVI asr boshida Ispaniyaning iqtisodiy rivojlanishi .
2. Karl V boshqaruvi davri . Shahar kommunalarining qo'zg'oloni .
3. Shahar kommunalar mag'lubiyatining sababi va oqibatlari .

Adabiyotlar :

1. I. A. Karimov. Buyuk kelajak sari . T., 1997
2. I. A. Karimov . Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . T., 1998
3. Kudryavtsev A. E . Ispaniya v srednie veka . L., 1937
4. Altamira i Kreeva P. Istoriya Ispanii . M., 1951
5. Umumiy tarix . T. 4. M., 1953
6. Qurbongaliyeva M. G. O'rta asrlar tarixi . T., 1990
7. Semyonov V. F. O'rta asrlar tarixi . T., 1973
8. Udalsova Z. V. Istoriya Yevropo'. T. 1. M. «Nauka». 1988.
9. Udalsova Z. V. Istoriya srednix vekov. T. 1-2. M, «Vo'shaya shkola». 1991.
10. Boysov M. Istoriya srednix vekov. M, 1995.
11. Nefyodov S. Istoriya srednix vekov. M, 1996.
12. Vsemirnaya istoriya T. 3 M . 2000

Rekonkista tugatilgandan keyin Portugaliyadan tashqari butun Pireney yarim oroli ispan qirollari qo'l ostida birlashtiriladi . Sardiniya , Sitsiliya , Balear orollari , Neapolitan qirolligi , Navarra ham Ispaniyaga qaragan .

XIV asrning I yarmida Ispaniyaga geografik kashfiyotlarda , mustamlakalar bosib olishda , Amerika bilan savdoda va xalqaro munosabatlarda asosiy o'rinni egallagan .

1516 yil Ferdinand Aragon vafotidan keyin ispan taxtini Karl I egallaydi . Onasi tomonidan u Ferdinandning nabirasi , otasi tomondan imperator Maksimilian I Gabsburgning nabirasi bo'lgan. Otasidan Germaniyadagi mulklari va Niderlandiyani meros oladi. 1519 yildan imperator Karl V sifatida tan olinadi .

XVI asr o'rtalaridan boshlab Ispaniyaning iqtisodiy va siyosiy tushkunligi boshlandi. Siyosiy birlashuvi va kuch – qudratining o'sishiga qaramasdan Ispaniyaning viloyatlari ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan bir – biridan keskin farq qilgan . Aholining $\frac{3}{4}$ qismi Kastiliyada yashagan . Kastiliyada yerlar boshqa viloyatlarda bo'lganidek , dvoryanlar ,

katolik cherkovi va ruhoniyyat – ritsar ordenlari qoʻlida edi . Rekonkista vaqtidan boshlab dehqonlarning asosiy qismi shaxsan erkin hisoblangan . Dehqonlar tsenz toʻlab, feodallar yerlariga merosiy egalik qilganlar . Yerlarni ular tashlab ketishlari mumkin boʻlgan va boshqa maʼlum huquqlarga ham ega boʻlganlar . Ayniqsa arablardan tortib olingan Yangi Kastiliya va Granadaga kelib oʻrnatilgan dehqonlarning sharoiti yaxshi boʻlgan . Ular shaxsan erkin boʻlish bilan bir qatorda , Kastiliya shaharlari kabi huquq va imtiyozlarga ega boʻlganlar .

Aragon va uning tarkibiga kirgan Kataloniya , Valensiya va Navarraning ijtimoiy – siyosiy tuzumi Kastiliyadan keskin farq qilgan. Bu yerda XVI asrda ham krepostnoy qaramlikning eng ogʻir koʻrinishlari saqlanib qolgan . Feodallar dehqonlarning mulklarini meros olishi va ularni oʻldirishi mumkin boʻlgan . XV asr oxiridagi qoʻzgʻolonidan keyin dehqonlar shaxsan erkinlikni qoʻlga kiritishadi .

Xristianlikni qabul qilgan arablarning avlodlari – morisklar shahar va qishloqlarning ayanchli va huquqsiz kishilari hisoblangan . Ular Granada , Andaluziya va Sevilʼyaning chekkalarida yashashgan. Ular kamhosil yerlarga haydalib, hosilning 1/3 qismini senʼorga toʻlashgan. Bundan tashqari ular davlatga va cherkovga ham soliq toʻlaganlar , daromadli hunarlar bilan shugʻullanishga yoʻl qoʻyilmagan . Inkvizitsiya ularni qattiq taʼqib qilgan .Shunday ogʻir sharoitlarda morisklar zaytun , uzumzor , shakarqamish , ipakchilik bilan shugʻullanganlar .

XVI asr boshlarida shaharlar kengayishi va mustamlakalarda mahsulotga talab ortishi natijasida qishloq xoʻjaligi rivojlanishi kuzatiladi . Burgos , Valyadolid , Madina del Kampo kabi yirik shaharlar atrofida uzumzorlar va zaytun maydonlari kengaydi . Vinochilikda kapitalistik munosabatlar paydo boʻladi . Vino va zaytun moylari Amerika mustamlakalariga va Evropa davlatlariga chiqarilgan .

Xoʻjalikdagi bunday rivojlanish dehqon xoʻjaliklariga taʼsir qilmagan . Mahsulotlarga narx oshgan bir paytda boshqoqli ekinlar bilan shugʻullangan dehqonlar gʻallani bozorga davlat belgilagan narxda sotishgan . Kasodga uchragan dehqonlar sudxoʻrlarga qaram boʻla boshlaydi . XVI asr boshlarida Kastiliya xoʻjaligining asosiy tarmogʻi haydab yilqichilik qilish edi . Grandlarga qarashli bir necha million qoʻy har yili 2 marta - bahor va kuzda Kastiliyadan janubga, Estremadura va Andaluziyaga haydalgan , keyinchalik qayta Shimolga olib kelingan . Katta yoʻllarda haydalgan poda barcha qishloq xoʻjalik maydonlarini , uzumzor va zaytunzorlarni payhon qilib yuboradi

Dehqonlarning qarshiligi yirik chorvadorlar ittifoqi- Mestaning qarshiligiga uchragan . Movutsozlikning rivojlanishi bilan G'arbiy Evropada yungga bo'lgan ehtiyoj ortadi . Qirol hokimiyati yung savdosidan katta daromad olib , Mestaga homiylik qiladi . Dehqonlar xonavayron bo'lib , g'alla ekishzorlari qisqaradi. XVI asrning 30– yillaridan boshlab Ispaniyaga Frantsiya va Sitsiliyadan g'alla keltirila boshlangan .

Bu davrda hunarmandchilik rivojlanib, kapitalistik manufaktura belgilari paydo bo'ladi . Movutsozlik hunarmandchilikning asosiy sohasi hisoblanib , Segoviya , Toledo , Qurdoba , Kuenkeda manufaktura ko'rinishidagi korxonalar paydo bo'ladi . Bu shaharlarning chekkasida yigiruvchilar , to'qimachilar tarqoq manufakturalarda savdogarlarga ishlagan . Biskayya kemasozlik va metallurgiya markazi hisoblangan .

Ipak matolar ishlab chiqarish Toledo, Granada, Valensiya, Mursi, Malagada yo'lga qo'yilgan bo'lib, eski tsex tartiblarini saqlab qolgan . Movutdan farq qilib , ipak buyumlar yuqori sifatli bo'lib Flandriya , Frantsiya , Italiya , Shimoliy Afrikaga chiqarilgan . Qilich , xanjarlar ham tayyorlangan .

Ispaniyada va 30 – yillardan boshlab Amerika mustamlakalarida bozozrlarning kengayishi sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir etadi . Ko'chib kelgan idalgolar kiyim va qurollarni tilla va kumushga xarid qilganlar . Dehqonlarning qishloqlardan qochib ketishi hisobiga ishchi kuchining ko'payishi ham yangi korxonalar paydo bo'lishiga yordam beradi. Valyadolid, Salamanka va boshqa shaharlarda daydilarni zo'rlab ishchiga aylantirganlar .

Ispaniya sanoati Evropaning ilg'or davlatlaridan orqada bo'lib , paydo bo'lgan erkin ishchi kuchini bir qismini o'zlashtirgan. Texnik qurilmalar unchalik rivojlanmaganligidan ishlab chiqarish qimmatga tushgan . Ispaniya importi eksportdan yuqori bo'lib , eksportning asosini xom - ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil etgan . Movut sanoati rivojlangan XVI asrning I yarmida ham Ispaniyadan yung tashqariga chiqarish uch marta ko'paygan

XVI asrda tashqi savdo rivojlanadi. Sevil'ya yirik savdo markaziga aylanib, Amerika bilan savdo qilish shu yerda to'planadi. Sevil'yada Ispaniyaning eng boy savdogarlari yashashgan. 100 kemadan ortiq flotiliya muntazam Amerikaga qatnab turgan. Madina del Kampo yarmarkalari bilan mashhur bo'lgan . U kredit operatsiyalari markaziga aylanadi . Iqtisodiy tarqoqlik tufayli mamlakat ichki savdosi rivojlanmaydi .

1516 yil Ferdinand Aragon vafot etgach, nabirasi Karl I taxtga o'tiradi . 1519 yil bo-

bosi Maksimilian I Gabsburg vafot etgach , u Karl V nomi bilan “ Muqaddas Rim imperiyasi” imperatori etib saylanadi. Shunday qilib, Ispaniya imperiya tarkibiga kiradi . Zamondoshlar ” Karl monarxiyasida quyosh botmaydi “,- deyishardi .

Flandriyada tarbiya olgan Karl V Ispaniyani va ispan tilini bilmagan. 1517 yil flamand maslahatchilari bilan Ispaniyaga kirib kelgan 17 yoshli qirol dushmanlarcha qarshi olinadi. Qirol Kastiliya , Aragon va Katalon korteslaridan qiyinchilik bilan o’zini qirol deb tan olishlariga erishadi. Karl flamandlarga imtiyozlar va daromadli lavozimlarni tarqatadi . Karlning imperator etib saylanishi va Germaniyaga ketishi norozilikni kuchaytiradi . Yangi subsidiya olish uchun 1519 yil chaqirilgan korteslar Karlning Ispaniyadan tashqarida uch yildan ortiq bo’lmasligini , mablag’ning olib chiqib ketilishiga chek qo’yishni va chet elliklarga lavozimlar berishni to’xtatishni talab qiladilar . Qirol va’da berib , subsidiya olishga muvaffaq bo’ladi .

1520 yil mayda Karl Niderlandiyadan olib kelgan Kardinal Adrian Utrextni noib etib tayinlab, Ispaniyadan chiqib ketadi . Bu Kastiliyada shahar kommunalarining qo’zg’oloniga sabab bo’ladi . (ispancha kommuneros)

Dastlab qo’zg’olonda aholining turli qatlamlari qatnashadi . Flamandlarning o’zbo-shimchaligi , qirolning moliyaviy faoliyati va shaharlarning huquqiga daxl qilinishi , hamda korteslarning ahamiyati tushib ketishidan boy shaharliklar norozi edilar . Avval qo’zg’olon boshlagan Toledo aholisi boshqa shaharlarga murojaat qilib , erkinliklarni saqlab qolish uchun birgalashib kurashga chaqiradi . Qo’zg’olonchilarning asosiy qismi ni soliqlardan norozi shaharliklar , hunarmandlar tashkil qiladi . Grandlar va idalgolar ham dastlab qo’zg’olonga qo’shiladilar . Grandlar qo’zg’olondan o’zlarining avvalgi imtiyozlarini tiklashda foydalanishga urinadilar . Mayda va o’rta feodallar ham mavrlar bilan urush davridagi erkinlikni tiklashga urinadilar . Ispan feodallari ayniqsa chet elliklarni yuqori va daromadli lavozimlarni egallashidan norozi edilar .

May, iyun oylarida Toledoga Kastiliyaning Segoviya, Burgos, Avila kabi shaharlari qo’shiladi . Ular korrexidorlarni haydab (qirol amaldorlari) , yangi , demokratik boshqaruv tuzadilar. 29 iyulda beshta shahar deputatlari Avilada yig’ilib , “Muqaddas xunta” (“ ittifoq ”) tuzadilar va kastiliyalik Xuan de Padil’yani qo’shin qumondoni etib saylashadi . Madina del Kampo qirol qo’shinlari tomonidan vayron etilgach ,qo’zg’olon shimoliy va markaziy Kastiliyani hamma shaharlarini qamrab oladi . Xunta Adrian hokimiyatini bekor qiladi . Karl bilan murosaaga urinib , xunta unga oktyabr oyida talabno-

ma yuboradi . Talabnomada qirolning doim Ispaniyada yashashi , lavozimlarga ispanlar tayinlanishi , oltin va kumush mamlakatdan chiqarilib ketmasligi ko'rsatiladi . Kortesar har uch yilda chaqirilishi , dvoryanlar ham soliq to'lashlari kerakligi , aristokratlar o'zlashtirgan yer va konlar davlatga qaytarilishi ham talabnomada qayd qilinadi . Grand va dvoryanlar shahar boshqaruvida ishtirok etmasliklari ham talab qilinadi . Oxirgi talab qo'zg'olonda tub burilishga olib keladi . Dvoryanlar va shaharliklar orasida urush boshlanadi. Bundan foydalanishga harakat qilib , qirol shaharlarga yon berishga va'da qiladi .

Qo'zg'olonning tobora antifeodal tus olishi grandlarning qirol tomoniga o'tib ketishiga olib keladi . Kastiliya dehqonlari o'z sen'orlariga hujum qila boshlaydi .

Ikkilanish tufayli shaharlarning bir qismi “ Muqadas xunta” dan chiqadi . 1520 yil Valyadolid shahrida qo'zg'olonchilarning ashaddiylari yangi “ Otryadlar xuntasi ” ni tuzadilar .

Qo'zg'olonchilarning qirol qo'shinlari bilan hal qiluvchi urushi 1521 yil aprelda Vilyalar qishlog'i yonida bo'lib o'tdi . Dvoryanlar qo'shinlari “ Muqaddas xunta ” armiyasini tor– mor keltiradi. Padil'ya va boshqa yo'lboshchilar qatl etiladi. Toledo shahri Padiliyaning bevasi Mariya Pacheko rahbarligida olti oy qarshilik ko'rsatadi . 1522 yil iyulda Karl nemis qo'shinlari bilan Ispaniyaga kelganda qo'zg'olon to'la bostirilgan edi.

Hali Ispaniyada viloyatlar separatizmi kuchli edi. Kataloniya va Aragon qo'zg'olonga qo'shilmadilar .

Karl davlati tarqoq davlatlar va hududlarning birlashmasi bo'lib , iqtisodiy va siyosiy tuzumiga ko'ra ular bir – biridan farq qilgan . Karl “ Butunjahon xristian monarxiyasi”ni tuzishni orzu qilardi . U o'zini turklarga va nemis protestlariga qarshi kurashda katoliklar rahbari hisoblardi . Shunga ko'ra Ispaniya unga harbiy urushlar uchun mablag' va askarlar to'plash uchun manba sifatida qaralar edi .

Italiya urushlari davrida Karl Shimoliy Italiyaning katta qismini qo'lga kiritdi. Turk-larning Evropaning ichkarisiga kirib borishini to'xtatish maqsadida Karl katta qo'shin tuzadi, 1535 yil Tunisni turklardan vaqtincha tortib oladi. Biroq , turk kemalari O'rta Yer dengizida ispan savdosiga xalal berishi baribir davom etaveradi .

1556 yil Karl taxtdan voz kechgandan keyin o'g'li Filipp II taxtni egallaydi .
1556 - 1598) .

Ispaniya XVI asr – XVII asrning I yarmida .

1. Filipp II davrida Ispaniya . Ispan absolyutizmi .
2. XVI asr II yarmida Ispan iqtisodining tushkunligi va uning sabablari .
3. XVII asrning I yarmida Ispaniya .

Adabiyotlar :

1. I. A. Karimov . Buyuk kelajak sari . T., 1997
2. I. A. Karimov . Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . T., 1998
3. Kudravnsev A. E. Istoriya v srednie veka . L., 1937
4. Altamira i Kreeva P. Istoriya Ispanii . M., 1951
5. Umumiy tarix . T. 4 . M., 1953
6. Qurbongaliyeva M. G. O'rta asrlar tarixi . T., 1990
7. Semyonov . V. F. O'rta asrlar tarixi . T., 1973
8. Udalsova Z. V. Istoriya Yevropo'. T. 1. M. «Nauka». 1988.
9. Udalsova Z. V. Istoriya srednix vekov. T. 1-2. M, «Vo'shaya shkola». 1991.
10. Boysov M. Istoriya srednix vekov. M, 1995.
11. Nefyodov S. Istoriya srednix vekov. M, 1996.
12. Vsemirnaya istoriya T. 3 M . 2000

Karl V doim harbiy yurishlar bilan band bo'lib, Ispaniyada deyarli bo'lmaydi . Ispaniyaga janubdan hujum qilgani va Avstriya gabsburglari mulklariga janubi sharqdan hujum qilgani uchun turklar bilan Italiyada hukmronlik qilish uchun frantsuzlar bilan protestant knyazlari bilan Germaniyada doimiy urushlar olib boradi .

Uning o'g'li Filipp II davrida Ispaniyada dahriylarni quvg'inga olish kuchaydi . Inkvizitsiya faoliyati kuchayib , davlat idorasiga aylanadi , inkvizitorlar esa qirolning amaldorlariga aylantiriladi. Ular qirol tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi . Lyutiran va kalvinistlar batamom yuqotiladi , katolik ta'limotidan har qanday og'ish ayovsiz jazolanadi. Inkvizitsiya absolyutizm dushmanlari bilan ham kurashishi qirol hokimiyatining kuchayishiga yordam beradi. Inkvizitsiya dahriylar ustidan hukm chiqarib, yoqib yuborish uchun hokimiyat qo'liga topshirgan . Bir vaqtning o'zida o'nlab odamlarni o'tda kuydirganlar . Inkvizitsiya tsenzurani nazorat qilgan , ta'qiqlangan kitoblarni ruyxat qilgan. Ayniqsa morisklar – xristianlikni qabul qilgan arablar avlodlari inkvitsiya

tomonidan qattiq ta'qibga olingan . Ular arabcha ism qo'yish , gapirish , yozish va urfodatlariga amal qilish ta'qiqlanadi. 1568 yil Granada va Andaluziya morisklari qo'zg'olon boshlaganlar . Qo'shin yuborilib , Filipp II askarlarga mahalliy aholini talash bo'yicha alohida farmon beradi. 1572 yilda qo'zg'olon bostirilib, Granada morisklari boshqa viloyatlarga ko'chiriladi .

Kam savod, johil Filipp II Tolodo va Valyadoliydagi ispan qirollari saroylaridan voz kechib dasht va kamhosil Madrid shahariga poytaxtni ko'chiradi . Madrid yaqinida Eskorial qasri qurilib , shu yerdan chiqmasdan Filipp II mamlakatni boshqaradi . Ko'plab ayg'oqchilari unga mamlakatda bo'layotgan voqealardan xabardor qilib turganlar . Filipp II xalqaro maydonda katolik reaksiyasiga bosh bo'ladi . U Evropada Ispaniyaning yetakchiligini ta'minlashga va katolik ta'limotini mustahkamlashga harakat qiladi .

60– yillarda ispan absolyutizmiga qarshi Niderlandiyada qo'zg'olon boshlanadi, boy va sanoati rivojlangan Shimoliy viloyatlar Ispaniya hukmronligidan ozozd bo'ladi .

Protestant Angliyasi Ispaniyaning asosiy dushmani edi. Dengizda hukmronlik uchun bu ikki davlat uzoq kurash olib boradi . Elizavetaga qarshi tayyorlangan fitnalarni Filipp qo'llaydi. 1588 yil Filipp Angliyani ishg'ol qilish uchun “Engilmas Armada” deb nomlangan flot junatadi. Angliya sohillarida ispan floti tor – mor keltiriladi. Orqaga qaytish chog'ida kemalarning bir qismini dovul ag'darib tashlaydi, faqat yarimi Ispaniyaga qaytib keladi . Ispaniyaning dengizdagi hukmronligiga barham beriladi .

Frantsiyada fuqarolar urushi davrida Filipp II katolik lageriga rahbar bo'lgan Gizlar bilan yaqinlashadi. Uning 1590 yil Frantsiyaga yuborgan qo'shini Bretan va Longedoxda protestatlarga qarshi kurashadi . Parijga doimiy Ispan garnizoni kiritiladi . 1594 yil Parij protestantlar rahbari Genrix IV tomonidan egallanadi . 1598 yil Filipp Frantsiya bilan sulh tuzadi va Frantsiyaning mustaqilligini tan oladi . 1581 yil Shimoliy Afrikaga yurish paytida Portugal qiroli halok etgach (merosxo'ri bo'lmagan) Filipp Portugaliya va uning mustamlakalarini Ispaniyaga qo'shib oladi . Portugaliya 60 yil Ispaniya tarkibida bo'ladi .

Filippning urinishlariga qaramasdan uning siyosatining halokati muqarrar edi. Milliy davlatlar shakllanayotgan va kapitalistik munosabatlar tarqalayotgan vaqtda feodal Ispaniyaning hukmronligi mumkin emas edi .

20- yillardagi qo'zg'olon bostirilgach absolyutizm mustahkamlanadi . Shaharlar qisman o'z – o'zini boshqaruv huquqini saqlab qolishdi , biroq hamma lavozimlarni dvor-

yanlar egallashdi . Korteslar qonun hiqarish va uni bekor qilish huquqidan mahrum bo'ldi . Sobiq mustaqil davlatlar Ispaniya viloyatlariga aylansada , ma'lum mustaqilligini saqlab qoladi .

Ispan absolyutizmi o'z xarakteriga ko'ra ingliz va frantsuz absolyutizmidan farq qilgan. XVI asr mobaynida siyosiy hokimiyatdan mahrum bo'lib, grandlar yer egaliklarini kengaytiradilar va iqtisodiy jihatdan kuchayadilar . Avvalgi mustaqilliklari evaziga ular yangi lavozimlar va faxrli unvonlar olishadi . Aristokratlarning bir qismi poytaxtga ko'chib keladi va saroy a'yonlariga aylanadilar .

Ispaniyada qirolga bo'ysunadigan cherkov ham katta ahamiyatga ega edi . Bu ha ispan absolyutizmining bir belgisi hisoblanadi .

Frantsiya va Angliyadagidek, Ispaniyada ham absolyutizmning ijtimoiy tayanchi o'rta va mayda dvoryanlar – idalgolar edi . Idalgolarning shvolidagi o'ziga xoslik shundan iborat ediki , ular rekonkista tugaganidan keyin ham xo'jalik ishlari bilan shug'ullanmaganlar . Oson boylik orttirish payida ular qirollar olib borgan urushlarda qatnashadilar . Ko'plab idalgolar konkistadorlar sifatida istilo va talash uchun imkoniyatlar mavjud bo'lgan Amerikaga jo'naganlar . Davlat tomonidan o'zlashtirilgan oltinlarning bir qismi harbiy yoki davlat xizmatidagi amaldorlarga , nafaqalarga ajratilgan . Amerikada qimmatbaho metallarni qo'lga kiritib turgan dvoryanlar o'z mamlakatlari xo'jaligi rivojlanishidan manfaatdor emas edilar . Shu bilan ular ingliz va frantsuz dvoryanlaridan farq qiladilar . Shunga ko'ra Ispaniyada absolyut monarxiya va shaharlar ittifoqi yuzaga kelmaydi .

Shunday qilib , ispan absolyut monarxiyasi mamlakat xo'jaligining rivojlanishida progressiv (ijobiy) ahamiyatga ega bo'lmadi . Bu XVI asr o'rtalaridan mamlakatda boshlangan iqtisodiy tushkunlikning sabablaridan biri edi .

Amerika oltinlari avval Ispaniyada to'planib, bu yerdan keyin boshqa mamlakatlarga o'tib ketgan . Shuning uchun 30 – yillardan boshlangan “ baholar inqilobi ” Ispaniyada kuchli seziladi . Ispan sanoat mahsulotlari qimmat va sifati past bo'lgani uchun raqobatga bardosh bera olmaydi . Ispan mahsulotlari Evropada , Amerikada va Ispaniyaning o'zida ham bozorlardan mahrum bo'ladi . Dvoryanlar manfaatini ifoda etgan markaziy hokimiyat proteksionizm tadbirlarini amalga oshirmaydi . Mesta bilan yaqinlashgan va boj olishdan manfaatdrr hukumat Flandriyaga , Italiyaga , Frantsiyaga yung chiqarishga ruxsat bergan . Natijada ispan movut sanoati xom – ashyoga ehtiyoj sezgan va xom -

ashyoga narxlar oshishiga sabab bo'lgan. Ipak, metall ham mamlakatdan olib ketilgan .Niderlandiya va Ispaniyani bir davlat sifatida qaragan Karl Niderlandiya sanoat mahsulotlarini sotishga qarshilik qilmagan .

Mamlakat viloyatlarining mustaqilliklari saqlanib qolgan . Natijada ichki boj to'lov-lari xorijiy mahsulotlaridan keltiriladigan buyumlarga qo'yiladigan bojdand baland bo'lgan .

Ispaniya tushkunligining boshqa sababi absolyutizmning xalqaro siyosatidan kelib chiqadi . Karl I va Filipp II olib borgan urushlar soliqlarning oshishiga sabab bo'ladi va dehqon hamda shaharliklarni xonavayron qiladi . Bundan tashqari qirollar german , flo-rentsiyalik , genuyalik bankirlardan katta qarzlar olib , evaziga mamlakatda imtiyozlar berishgan . (konlar , Amerika bilan savdo , ipak olib ketish va h.) Shu tariqa qarz to'-lash uchun oltin va kumush tashqariga chiqib ketadi . Oltinlarning bir qismini dvoryan-lar ishlab chiqarishga emas , xorijiy mahsulotlarni sotib olishga sarf qilganlar . Cherkov tomonidan morisklarning ta'qib qilinish ham mamlakat xo'jaligiga salbiy ta'sir etadi .

Iqtisodiy tushkunlik avval qishloq xo'jaligida , keyin sanoat va savdoda tarqaladi . Qishloqlardan dehqonlarning qochib ketishi tufayli qishloq xo'jaligi og'ir ahvolda qo-ladi . XVI asr oxiriga kelib ishlatiladigan yerlar 3 marta qisqaradi . 70 – yillardan bosh-lab Frantsiyadan, Sitsiliyadan, keyinchalik Polsha va Pusdan g'alla keltirila boshlangan.

XVI asrning II yarmidan boshlab movutsozlik qisqaradi . Sanoat shaharlari aholisi Kamayib ketadi . Sanoat izdan chiqib , savdo qisqaradi . Shaharlardan faqat Sevil'ya ahamiyatini saqlab qolib , bu yerdan xorijiy savdogarlar ispan kemalarida Amerikaga jo'nashgan . Angliya , Gollandiya , Frantsiya kemalari tomonidan ispan kemalarini ta-lash va kontrabanda savdosi tufayli ispan – amerika savdosi tushkunlikka uchraydi .

Bunday sharoitda savdogarlar va tadbirkorlar o'z kapitallarini sanoatdan va savdo-dan olishgan. Ular yerlar sotib olganlar (dvoryanlik unvoni olish uchun) lavozimlar so-tib olganlar , soliqlar sotib olganlar .

Filipp III davrida Ispaniyaning avvalgi mavqeidan asar ham qolmagan edi . Markaziy hokimiyatning zaiflashganligidan foydalangan grandlar avvalgi siyosiy mus – taqilliklarini tiklaydilar .

Idalgolarning ko'pchiligi jismoniy mehnatdan hazar qilib, qashshoqlarcha yashagan. Soliqlarning o'sishi har qanday ishlab chiqarishni samarasiz qilib qo'yadi .

Morisklarning haydalishi ham tushkunlikni keskinlashtiradi . 1609 yilda ruhoniylar talabiga ko'ra morisklarni haydash haqida edikt qabul qilingan edi . 6 % morisklar qoldiriladi . 500000 kishi haydab yuboriladi .